

O'ZBEKISTONDA MILLIY VALYUTA – SO'MINI JORIY ETISH TARIXI VA AHAMYATI(1993-1994)

Kuralbayeva Lobar Batirbayevna

Millat Umid Universiteti Axborot Texnologiyalar fakulteti Dasturiy ta'minot
muhandisligi yo'nalishining 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida 1993-1994 yillar oralig'ida amalga oshirilgan pul islohotlari, joriy etilish tarixi va ahamiyatlari haqida. Bu maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston milliy valyutasi, so'mining ta'sis etilishi, uning iqtisodiyotdagi o'rni, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy davrdagi ro'li haqida batafsil tahlil qilishdir. So'mning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni, uning xalqaro savdoda qo'llanilishi va kelajakdagi rivojlanish isdqbollari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Milliy valyuta, Pul tizimi transformatsiyasi, so'mning shakllanishi, kupon pullar, Inflyatsiya bosqichlari, Moliyaviy Barqarorlik, Bankonatlar dizayni, Pul islohotlari, raqamli to'lov tizimi.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 1-sentabrda mustaqillikka erishgach, mamlakat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar davri boshlandi. Yangi davlat uchun siyosiy mustaqillik bilan bir qatorda iqtisodiy mustaqillikka erishish ham eng muhim masalalardan biri edi. Chunki har qanday mustaqil mamlakatning tayanchi — bu uning o'z milliy valyutasi, o'z moliyaviy siyosati va ichki bozori hisoblanadi.

Milliy valyuta — davlat suverenitetining eng muhim belgilaridan biridir. U orqali mamlakat o‘z pul-kredit siyosatini mustaqil yuritadi, iqtisodiyotni boshqaradi va xalq farovonligini ta’minlaydi. Shuning uchun ham 1993–1994-yillarda O‘zbekistonda milliy valyuta — so‘mning joriy etilishi mamlakat tarixida buyuk voqea bo‘ldi.

MRTODOLOGIYA

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston hali sobiq Sovet Ittifoqining iqtisodiy tizimiga bog‘liq edi. 1991–1993-yillarda mamlakatda Rossiya rubli asosiy muomaladagi pul bo‘lib qoldi. Ammo 1993-yilda Rossiya Federatsiyasi sobiq ittifoq respublikalarini “rubl zonasi”dan chiqarib tashladi.

Natijada O‘zbekiston va boshqa MDH davlatlarida iqtisodiy beqarorlik kuchaydi:

Bozorlarda narxlar keskin oshdi,

Tovarlar yetishmadi,

Aholining jamg‘armalari qadrsizlandi.

O‘zbekiston hukumati oldida shoshilinch savol paydo bo‘ldi — o‘z milliy pul tizimini joriy etish zarur edi. 1994-yil 16-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan milliy valyuta – so‘m joriy etildi.

Milliy valyuta joriy etish jarayoni davlat iqtisodiy mustaqilligini, ichki va tashqi savdolari tartibga solishni, inflyatsiyani nazorat qilishni va xalqaro moliyaviy tizimlar bilan integratsiya qilishni maqsad qilgan edi. So‘mning joriy etilishi bilan O‘zbekistonning iqtisodiy aloqalari va moliyaviy tizimi mustahkamlandi.

MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mning joriy etilishi, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va xalqaro moliyaviy tizimlar bilan integratsiyani kuchaytirish maqsadida amalga oshirildi. 1994-yilda so'mning joriy etilishi jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo'lib, uning o'tkazilishi mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy tizimlarida katta o'zgarishga olib keldi. Milliy valyutani joriy etish jarayonining asosiy bosqichlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Milliy valyutani tayyorlash va huquqiy asoslar yaratish

So'mning joriy etilishidan oldin, bir necha huquqiy va moliyaviy asoslar yaratildi. 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tashkil etildi, u mamlakatning pul-kredit siyosatini boshqarish, valyuta bozorini tartibga solish va milliy valyutani joriy etishga tayyorlash vazifasini oldi. Shuningdek, milliy valyutani joriy etishga tayyorlik uchun O'zbekiston hukumati turli huquqiy normative hujjatlar va qarorlar qabul qildi. 1993-yil 15-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan milliy valyuta joriy etish jarayoniga start berildi.

2. So'mning o'rnatilishi va birinchi bosqichda muammolar

1994-yil 16-iyundan boshlab O'zbekistonning milliy valyutasi – so'mning joriy etilishi amalga oshirildi. Dastlabgi bosqichda eski pul birligi, ya'ni Sovet rubli, O'zbekiston ichki bozorida parallel ravishda ishlatilib turdi. So'mning bozorga kirishi jarayonida bir qancha muammolar yuzaga keldi. Birinchidan, yangi valyutaning qiymatini belgilashda ko'plab noaniqliklar mavjud edi. Ikkinchidan, inflyatsiya darajasi yuqori bo'lib, so'mning qiymati tezda pasayib borishi xavfi bir edi. Shuningdek, yangi valyutani ishlab chiqarish, tarqatish va keng joriy etish bo'yicha muammolar yuzaga keldi.

3. So'mning joriy etilishi va barqarorlikni ta'minlash choralari

Milliy valyutani joriy etishning keying bosqichi 1995-yilga borib, yangi valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan choralarning amalga oshirilishi bilan davom etadi. Markaziy bank va boshqa moliyaviy muassasalar iqtisodiyotda inflyatsiyani nazorat qilish, so'mning kursini barqarorlashtirish uchun turli usullarni qo'lladilar. 1995-yilda Markaziy bankning valyuta siyosati doirasida so'mning kursini erkin bozorga yonaltirish jarayoni boshlandi. Shuningdek, so'mning tashqi savdoda qollanilishi va xalqaro tizimlarga integratsiya qilish uchun moliyaviy muassasalar tomonidan maxsus dasturlar ishlab chiqildi[1].

Milliy valyuta joriy etishning muvaffaqiyatli o'tkazilishi nafaqat O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta'minladi, balki xalqaro aloqalar va o'zaro savdolarni rivojlantirishga imkon yaratdi. So'mning joriy etilishi jarayonida yuzaga kelgan muammolar, iqtisodiy islohotlar va yangi pul-kredit siyosati orqali yengib o'tilgan bo'lib, bugungi kunda so'm o'zining iqtisodiy o'rnini mustahkamlagan va davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining [122-moddasiga](#), "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi Qonunning [11-moddasiga](#) va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentabrdagi 952-XII- son [qaroriga](#) muvofiq[2]:

1. 1994-yilning 1-iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasining hududida 1000 so'm-kuponga bir "So'm" nisbati bilan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi — "So'm" muomalaga kiritilsin.

2. Milliy valyutani joriy etish bo'yicha respublika komissiyasining tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Naqd pullarni almashtirishga hamda pul muomalasiga oid barcha tezkor va joriy masalalarni hal qilish komissiya zimmasiga yuklatilsin.

3. O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi "So'm" O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 "So'm" bo'lgan bank qog'oz pullari /banknotlar/ va 1, 3, 5, 10, 20, 50 "Tiyin" bo'lgan metall tangalar holida naqd pul muomalasiga chiqariladi.

4. Belgilab qo'yilsinki:

1994-yilning 1-iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida "So'm" qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi;

"So'mlar" va "Tiyinlar" O'zbekiston Respublikasi hududida mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, hamma jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan barcha turdagi to'lovlarga, shuningdek banklar tomonidan omonatlarga va hisobvaraqlariga qo'shib qo'yish uchun hech qanday cheklovlarsiz qabul qilinishi majburiydir;

O'zbekiston Respublikasi hududida milliy valyuta — "So'm" bilan bir qatorda erkin muomaladagi valyutadan to'lov vositasi sifatida belgilangan tartibda foydalanishga ruxsat beriladi.

5. So'm-kuponlarni almashtirish uchun aholiga zarur shart-sharoitlarni yaratib berish va milliy valyutaga shoshmasdan o'tishni ta'minlash maqsadida:

— O'zbekiston Respublikasining bank muassasalari 1994-yilning 1-iyulidan boshlab so'm-kuponlarni muomalaga chiqarishni to'xtatsinlar;

— 1994-yilning 1-avgustiga qadar barcha turdagi to'lovlarga, shuningdek fuqarolarning omonatlariga va O'zbekiston Respublikasi doirasida pul o'tkazish uchun milliy valyuta bilan bir qatorda 1000 so'm-kuponga 1 "So'm" nisbati bilan hech qanday cheklovlarsiz so'm-kuponlarni qabul qilishga ruxsat berilsin. Aholiga xizmat ko'rsatayotgan respublikaning barcha savdo tashkilotlari hamda boshqa korxonalari, tashkilotlari va muassasalari mazkur bandning so'zsiz bajarilishini ta'minlasinlar.

O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda "So'm" bilan so'm-kupon bab-baravar muomalada bo'lgan davrda so'm-kuponlarga tovarlar

sotishdan va xizmat ko'rsatishdan bosh tortganlik uchun aybdor shaxslarni qattiq javobgarlikka tortsinlar.

6. Markaziy bank, "O'zsanoatqurilishbank", "O'zdehqonchilik sanoatbank" va respublikaning boshqa banklari 1994-yil 28-iyundan 5-iyulgacha 1994-yil iyun oyining ikkinchi yarmi uchun ish haqi, shuningdek 1994-yil iyul oyi uchun pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalar "So'm" bilan berilishini ta'minlasinlar.

7. Respublikaning vakil qilingan banklari 1994-yilning 1-iyulidan boshlab tegishli punktlar orqali erkin muomaladagi valyutani O'zbekiston Respublikasining "So'mlari"ga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilaydigan kurs bo'yicha cheklovlarisiz almashtirib berilishini ta'minlasinlar.

8. Mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, respublikaning barcha xo'jalik yurituvchi subyektlari va bank muassasalari 1994-yilning 1-iyuligacha bo'lgan holatda hisobvaraqlaridagi, omonatlardagi va majburiyatlardagi mablag'larni, shuningdek ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va boshqa to'lovlarning miqdorlarini 1 "So'm": 1000 so'm-kupon nisbati bilan qaytadan hisoblab chiqsinlar.

9. 1994-yilning 1-avgustidan boshlab O'zbekiston Respublikasining butun hududida to'lovlarning barcha turlari faqat milliy valyuta "So'm" bilan amalga oshirilishini e'tiborga olib, aholiga 1994-yilning 1-avgustiga qadar qolgan so'm-kuponlarni omonatlarga cheklovlarisiz qo'yish tavsiya etilsin.

Jamg'arma tarmog'iga ega bo'lgan "O'zjamg'armabank" va respublikaning boshqa tijorat banklari 1994-yil 1-avgustidan boshlab so'm-kuponlarni omonatlarga qabul qilishni to'xtatsinlar.

10. Jamg'arma tarmog'iga ega bo'lgan "O'zjamg'armabank" va respublikaning boshqa tijorat banklari 1994-yilning 1-sentabriga qadar aholining omonatlar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlaridagi operatsiyalarni faqat hisob-kitob cheklari, chek daftarchalari yoki omonatchilarning topshiriqlari bo'yicha pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirsinlar, 1994-yilning 1-

sentabridan boshlab esa omonatchilarning xohishiga ko'ra "So'mlar" va "Tiyinlar" bilan bersinlar.

11. Milliy valyutani joriy etish mexanizmi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki ishlab chiqqan normativ hujjatlar ma'qullansin.

12. 1994-yilning 1-iyulidan boshlab mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun mehnat haqini to'lashga beriladigan mablag'larni davlat yo'li bilan tartibga solish joriy etilsin.

O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi o'n kun muddat ichida buning uchun zarur yo'riqnomalarni xo'jalik yurituvchi subyektlarga yetkazsin.

13. Milliy valyuta – "So'm" joriy etish hamda muomalada bo'lgan so'm-kuponlarni belgilangan muddatlarda yig'ishtirib olish borasidagi ishlarning tashkil etilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki zimmasiga yuklatilsin.

14. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi ushbu Farmonni bajarish yuzasidan tegishli qaror qabul qilsin[3].

So'm qiymatining vaqt davomida o'zgarishi iqtisodiy siyosat va global moliyaviy bozorlarning ta'siri bilan bog'liq. O'zbekiston hukumati milliy valyuta barqarorligini ta'minlash maqsadida qator islohotlarni amalga oshirib keladi. 2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan valuta siyosatini erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilindi. Bu chora-tadbirlar O'zbekistonda erkin valuta almashuvining joriy etilishi, iqtisodiyotni liberallashtirish hamda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratishga imkon berdi.

Valuta kursining erkinlashtirilishi natijasida so'm bozor tamoyillari asosida qiymatini shakllantiradi. Bu esa eksport-import faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Avvalgi yillarda valuta kursi qattiq davlat nazoratida bo'lib, u davlat tomonidan belgilangan rasmiy kursga bog'liq edi. Biroq, yangi iqtisodiy siyosat

valyuta qiymatini erkinlashtirib, valyuta ayirboshlash jarayonini sezilarli darajada yengillashtirdi.

So‘m O‘zbekistonning iqtisodiy suverenitetini mustahkamlashda, ichki bozorni rivojlantirishda va davlat iqtisodiyotining barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Milliy valyutaning mavjudligi milliy iqtisodiyotni himoya qilishga imkon berib, xalqaro savdo aloqalarini o‘rnatishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. O‘zbekistonning xalqaro moliyaviy tizimlarda faol qatnashishi uchun milliy valuta barqarorligi ham zarur[4].

Milliy valuta, shuningdek, aholining iqtisodiy ongini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. So‘m O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatidagi suvereniteti va xalqning iqtisodiy farovonligi timsolidir. Bu valyuta orqali milliy iqtisodiy siyosat amalga oshiriladi, inflyatsiya darajasi va narxlar o‘zgarishi kabi omillar nazorat qilinadi.

XULOSA

O‘zbekistonning milliy valyutasi so‘m mamlakat iqtisodiy suvereniteti va mustaqillik ramzi sifatida muhim ahamiyatga ega. So‘mning qiymati va barqarorligi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va xalqaro maydondagi obro‘sga ta‘sir qiladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston hukumati so‘m barqarorligini ta‘minlash va uni xalqaro bozorlarda mustahkamlash uchun qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu esa so‘mni nafaqat milliy valuta sifatida, balki mamlakat iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim vosita sifatida taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Iqtisodiyot fakulteti. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanidan

“O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi va uning tasis etilishi”
Mavzusidagi Mustaqil ish // Ravshanova Z. 2024. -B. 5-6.

2. „Ижтим оий тароқларда беш минг сўмлик банкнотанинг суратлари пайдо бўлди“. kun.uz (2013-yil 21-iyun). 24-iyun 2013-yilda asl nusxadan [arxivlangan](https://arxivlangan.com). Qaraldi: 06-noyabr 2025-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni , 16.06.1994 yildagi PF-870-son.
4. O‘zbekiston Milliy Valutasi – So‘mning Tarixi va Ahamiyati. 31-oktyabr, 2024. [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: O‘zbekiston Milliy Valutasi – So‘mning Tarixi va Ahamiyati - ifazo.uz // (murojaat qilingan sana: 06.11.2025).